



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 2 - mart

VI-59-44-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qarorining tumandagi ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи Yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5215-sonli qarorining ijrosi bo‘yicha Angor tuman Bolalar masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan 2023-yil 1-choragi faoliyati yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, Angor tumani, “Yangi turmush” mahallasi, Tadbirkorlar ko‘chasi, 29-uyda yashovchi Normuratova Zamira Karaliyevnaning xonadonida yuridik shaxs maqomisiz 1-sonli “Oilaviy bolalar uyi” tashkil etilgan bo‘lib, yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan 10 nafar shundan, 5 nafari o‘g‘il bolalar va 5 nafari qiz bolalar tarbiyalanmoqda. Ularning yashash sharoitlari, qiziqishlari, orzu-istiklalarini amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi ishlab chiqildi.

1-sonli “Oilaviy bolalar uyi”da tarbiyanalayotgan 10 nafar bolalar, vasiylikka va homiylikka hamda oila tarbiyasiga (Patronat) berilgan 36 nafar yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar bo‘lib, ularning ta’lim-tarbiya va bilim olishi uchun o‘zlari qiziqqan fan va sport to‘garaklariga jalb qilinib, alohida murabbiylar tayinlandi.

Tuman hokimligining bolalarni himoya qilish sho‘basi bosh mutaxassisini tomonidan aniqlangan vasiylik va homiylikka muhtoj bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar hamda tarbiyalash uchun oilaga (farzandlikka, vasiylikka, homiylikka) qabul qilish istagida bo‘lgan nomzodlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar onlayin ijtimoiy himoya yagona reestri my.maktab.uz platformasidan foydalanib o‘z vaqtida kiritildi.

Tumandagi 1-sonli “Oilaviy bolalar uyi” hamda vasiylikka, homiylikka hamda oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalarning yashash sharoitlari ularning

qiziqishlari, orzu-istiklarini ro‘yobga chiqarish maqsadida biriktirilgan yigirma besh yoshga to‘Imagan Milliy gvardiya xodimi Qashqadaryo viloyatiga ishga yuborilganligi sababli boshqa Milliy gvardiya xodimi biriktirildi.

Biriktirilgan Milliy gvardiya xodimi bilan hamkorlikda vasiy yoki homiy tayinlash, farzandlikka berish va joylashtirishning boshqa shakllarini qo‘llash choralari ko‘rilib borilmoqda.

Yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlar tashkil etildi.

Angor tumani hokimligi, Bolalarni himoya qilish sho‘basi, Milliy gvardiya bilan hamkorlikda har oyda yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar bilan suhabatlar o‘tkazilib, ularning ta’lim-tarbiya olish ahvolini va maishiy shart-sharoitlarini o‘rganib, mavjud muammolarni bartaraf etildi.

Yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga tarbiya berish, ularni fan, axborot texnologiyalari, xorijiy tillar, kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, maqsadida tumandagi Ishga marhamat Monomarkazi bilan hamkorlikda ishlar yo‘lga qo‘yildi.

Boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik va sport bilan shug‘ullanishlarini tashkil etish maqsadida umumta’lim muassasalarida tashkil etilgan “Yosh chegarachilar” to‘garaklariga jalb qilindi.

Yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, shuningdek, vasiylikka va homiylikka olingan bolalar va oilaga tarbiyaga berilgan (patronat) bolalar bo‘yicha yaratilgan axborot tizimida ma’lumotlari to‘liq shakllantirilib, muammolarini o‘rganish hamda hal etish, ularning orzu-istiklarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish bo‘yicha “Mehr daftari” tizimiga kiritilgan.

“Mehr daftari” platformasiga kritilgan 26 nafar yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning qiziqishlari va xohish-istiklarini ro‘yobga chiqarish maqsadida tikuv mashinka avirlogi bilan birga, notebook, televizor, velosiped, payvandlash apparati, motokultuvator, changyutgich va boshqa asbob-uskunalarni “Mehr jamg‘armasi”dan olib berildi.

Yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan viloyat hokimligiga har chorakda axborot berib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagii “Yetim bolalar va ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan

tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qarori ijrosi yuzasidan Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho‘basi mudiri B.Shomurodovning xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga bergen hisobotini ko‘rib chiqilganligi inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qaroriga asosan “Mehr daftari”ga kiritilgan bolalar bilan ishslash yuzasidan tumanda amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho‘basi mudiri B.Shomurodovning xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga bergen hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosari (O.Umarov), tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish sho‘basi (B.Shomurodov) tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda:

- bolalarning ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lishning sabablarini o‘rganish va aniqlangan muammolarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

- yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash;

- o‘quv-tarbiya muassasalarida sifatli ta’lim va tarbiya jarayonini yo‘lga qo‘yishga, ularning maishiy shart-sharoitlari yaxshilanishiga, shuningdek tarbiyalanuvchilarining bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish;

- yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlarni tashkil etish;

- zamonaviy usul va shakllardan foydalangan holda jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk va dunyoqarashi keng yoshlarni shakllantirish, yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni sport turlariga qiziqtirish;

- ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar ko‘lamini kengaytirish, unga ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan, shuningdek, mashg‘ulotlarga uzrli sabablarsiz qatnashmayotgan bolalarning ishtirokini ta’minalash;

- nogironligi bo‘lgan voyaga yetmaganlarni belgilangan tartibda tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish ishlarini davom ettirish;

- “Mehr daftari” tizimiga kiritilgan yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning muammolari, ularni qiyinayotgan masalalarni joyida hal qilish hamda keyingi hayotida o‘z o‘rnini topishiga har tomonlama ko‘maklashish;

- “Mehr daftari” tizimi bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning samaradorligini monitoring qilib borish;

- hududlarda voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbazarlik va jinoyatchilik o‘sishining oldini olish bo‘yicha qat’iy choralarini yanada kuchaytirish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bolalarni himoya qilish sho‘basi (B.Shomurodov) “Mehr daftari” tizimiga kiritilgan yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning muammolari belgilangan tartibda sifatli ijrosini ta’milagan holda xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorakda hisobot berib borsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi (G.Jumayeva)ga tuman hokimligining Bolalarni himoya qilish sho‘basi (B.Shomurodov) bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagagi “Yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qarori ijrosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan **har chorak yakunida** xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo‘ziyeva) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov